

DOI /10.5281/zenodo.18933483

## TEST TOPSHIRIQLARINI ISHLAB CHIQUISH VA EKSPERTIZADAN O‘TKAZISHGA QO‘YILGAN TALABLAR: METODIK TAVSIYALAR

Z.Olimbekov<sup>1</sup>, A.Sulaymonov<sup>2</sup>

<sup>1</sup>Bilim va malakalarni baholash agentligi huzuridagi Ilmiy-o‘quv amaliy markazi, 100084, Toshkent sh., Bog‘ishamol k., 12.

<sup>2</sup>Bilim va malakalarni baholash agentligi, 100084, Toshkent sh., Bog‘ishamol k., 12., [zolibekov@mail.ru](mailto:zolibekov@mail.ru)

**Qisqacha mazmuni.** Ushbu maqolada ta’lim tashkilotlariga qabul jarayonida qo‘llaniladigan pedagogik o‘lchov vositalari, xususan test topshiriqlarini ishlab chiqish va ekspertizadan o‘tkazishga qo‘yiladigan talablar, test topshiriqlarini yaratish amaliyotini yaxshilash uchun metodik tavsiyalar taqdim etiladi. Shuningdek, test topshiriqlarining sifatini oshirishga, fan ekspertlari ishini samarali tashkil etish maqsadida ta’lim dasturlariga, kognitiv darajalar, topshiriq matni va javob variantlarini ishlab chiqish, ekspertiza jarayoni, shaxsiy malaka va xolislik kabi muhim masalalarga e’tibor qaratildi.

**Kalit so‘zlar:** pedagogik o‘lchov, test topshiriqlari, test varianti spetsifikatsiyasi ekspertiza, Bloom taksonomiyasi, validlik, ishonchlilik.

### 1. Kirish

Zamonaviy ta’lim tizimida bilim va ko‘nikmalarni ishonchli, adolatli va aniq baholash muhim ahamiyat kasb etadi. Ta’lim sifatini aniqlashda va sinalluvchilar bilimni o‘lchashda qo‘llaniladigan test topshiriqlari baholash jarayonining asosiy tarkibiy qismlaridan biri sanaladi. Shu bois, test natijalarining validligi va ishonchliligini ta’minlovchi test topshiriqlarini ishlab chiqish hamda ekspertizadan o‘tkazish jarayonlari yuqori ilmiy-metodik yondashuvni talab qiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi “Ta’lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo‘shimcha

chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-4884-son qarori asosida oliy ta’lim tashkilotlariga kirish test sinovi topshiriqlarini tuzish va ekspertizadan o‘tkazishning yangi tartibi joriy qilinishi belgilangan, unga muvofiq test sinovi topshiriqlari davlat ta’lim standartlari va o‘quv dasturlari asosida tuziladi, test sinovi materiallarining ma’no-mazmuni umumiy o‘rta ta’lim tizimidagi fanlarning o‘quv dasturlariga moslashtiriladi, abituriyentlarning nazariy bilimlarni o‘zlashtirish darajasi bilan birga mantiqiy fikrlashi, masala va misollarni bajara olish qobiliyati va ta’limning keyingi bosqichiga tayyorgarligini baho-

laydigan, kompetensiyaga asoslangan test topshiriqlari ishlab chiqiladi [1].

Xalqaro amaliyotda PISA, TIMSS, PIRLS kabi tadqiqotlar orqali ta'lim sifatini baholashda aniq psixometrik parametrlarga ega o'lchov vositalari

qo'llaniladi. O'zbekiston ta'lim tizimida ham bugungi kunda baholash vositalarini ilmiy asosda yaratish, natijalarning ishonchliligi va validligini ta'minlash bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi.

## 2. Tadqiqot usullari

**Pedagogik o'lchov vositalari** — bu o'quvchilarning bilimi, ko'nikmalari va kompetensiyalarini aniqlash, tahlil qilish va baholashga qaratilgan, tizimli ravishda shakllantirilgan topshiriqlar, savollar va testlar yig'indisidir.

Ushbu vositalar nafaqat natijani qayd etadi, balki quyidagi uchta:

mazmuniy komponent (stimul): o'quvchi bajarishi kerak bo'lgan aniq topshiriqlar (savollar, amaliy ishlar, keyslar, loyihalar);

me'yoriy komponent (mezon va deskriptorlar): topshiriqning qay darajada bajarilganini o'lchovchi aniq deskriptorlar va baholash shkalasi;

texnologik komponent (validlik va ishonchlilik): o'lchov natijalarining aniqligi, ishonchliligi va ta'lim maqsadlariga muvofiqligini ta'minlovchi metodik asoslarni o'z ichiga oladi.

Pedagogik o'lchov vositalarining asosiy vazifalari ta'lim natijalarini xolis baholash, o'quv jarayonidagi muvaffaqiyat va kamchiliklarni aniqlash, tarkibiy va formatlashtirilgan ma'lumotlar asosida tahlillar o'tkazishdan iborat [2]. Pedagogik o'lchov vositalarini ishlab chiqish va ularni qo'llash jarayonida xalqaro tajribalarni

inobatga olish bilan bir qatorda, ularning chegaralarini ham tan olish zarur. Bu esa o'z navbatida test topshiriqlarining samaradorligini oshirish uchun turli baholash usullarini uyg'unlashtirish zarurligini ko'rsatadi. Test topshiriqlari ta'lim sifatini nazorat qilishning ilmiy asoslangan shakli bo'lib, ular o'quv dasturlariga muvofiq holda tuzilishi zarur [3]. Validlik tushunchasi faqat statistik ko'rsatkichlar bilan belgilanmaydi; u test topshiriqlari ishlab chiqish jarayonida qaysi bilim va ko'nikmalarni o'lchash maqsad qilinganiga ham bog'liq [4].

Test topshiriqlarini ishlab chiqish jarayoni bosqichma-bosqich amalga oshirilishi lozim. Bu bosqichlar har bir o'lchov vositasining sifat va samaradorligini ta'minlash uchun xizmat qiladi:

**Diagnostic maqsadlarni aniqlash** — ishlab chiqilayotgan vosita qaysi bilim va ko'nikmalarni o'lchashga qaratilganligi belgilab olinadi. Bu bosqichda fan bo'yicha davlat ta'lim standartlari, kompetensiyalar ro'yxati, milliy o'quv dasturlari inobatga olinadi. Baholash vositalari faqat natija olish uchun emas, balki sinaluvchilarning kuchli va zaif tomonlarini aniqlashga

yordam beradigan diagnostik ahamiyatga ham ega bo'lishi kerak [5].

Har bir test topshirig'i biror-bir yagona maqsadni ko'zda tutgan holda test sinovi o'tkazilayotgan fan bo'yicha minimal talablarni belgilovchi quyidagi hujjatlarga mos bo'lishi lozim:

- tegishli ta'lim turi bo'yicha davlat ta'lim standartlariga;
- tegishli ta'lim turi bo'yicha o'quv rejadagi fan dasturlariga;
- ta'lim sohasidagi vakolatli davlat organlari tomonidan tavsiya etilgan va amalda qo'llanilayotgan darsliklar hamda o'quv qo'llanmalarida yoritilgan mavzular mazmuniga [6].

**O'lchov matritsasini shakllantirish** — bu fan bo'limlari va baholash maqsadlari kesishmasida tuziladigan jadval bo'lib, u orqali har bir topshiriq qaysi ko'nikmani tekshirayotgani aniqlanadi.

Pedagogik o'lchov vositalari fanlar bo'yicha test topshiriqlari tafsiloti (spetsifikatsiyasi) va fan strukturasi asosan ehtiyojga ko'ra tuziladi.

**Pedagogik o'lchov vositalarini ishlab chiqish** — topshiriqlar bir nechta formatda (yopiq, ochiq, ijodiy yoki tadqiqot, amaliy modellastirishga asoslangan va h.k.) bo'lishi mumkin.

O'tkazilayotgan tadbirning maqsadidan kelib chiqib, test topshiriqlarining turi va shakli haqidagi ma'lumotlar test topshiriqlari tafsilotida yoritilishi lozim.

Pedagogik o'lchov vositalari Blum taksonomiyasi asosida sinaluvchi-

larning kognitiv (*bilish, tushunish, qo'llash, tahlil, sintez, baholash*) darajasini aniqlashga xizmat qilishi lozim. Yopiq turdagi test topshiriqlari *o'ta (qat'iy) strukturalangan*, ochiq turdagi test topshiriqlari *strukturalangan* test topshiriqlari hisoblanadi [6].

Yopiq turdagi (muqobil javobli, dixatom (to'g'ri-noto'g'ri yoki ha-yo'q), moslashtiruvchi, ketma-ketlikni topishni talab etuvchi) test topshiriqlari, shuningdek, qisqa javobni talab etuvchi test topshiriqlari orqali Blum taksonomiyasining quyi – bilish, tushunish va qo'llash kognitiv darajalari qamrab olinadi. Yopiq turdagi test topshiriqlari qamrovi bir-biridan mustaqil bo'lishi lozim, ya'ni sinaluvchi bitta test topshirig'iga javob berishi uchun ikkinchi test topshirig'ini bilishi talab etilmasligi lozim.

Kengaytirilgan javobni talab etuvchi yoki amaliy ko'nikmani baholovchi ochiq turdagi test topshiriqlari orqali Blum taksonomiyasining yuqori – tahlil, sintez va baholash kognitiv darajalari qamrab olinadi. Kengaytirilgan javobni talab etuvchi yoki amaliy ko'nikmani baholovchi ochiq turdagi har bir pedagogik o'lchov vositasi uchun alohida baholash mezonini ishlab chiqilishi shart. Unda sinaluvchi har bosqichda bajarishi lozim bo'lgan vazifani amalga oshirish metodikasi aniq ko'rsatilishi lozim. Kengaytirilgan javobni talab etuvchi ochiq turdagi

pedagogik o'lchov vositasining (esse, diktant, yozma ish) matniga sinaluvchi natijani baholash mezonida ko'zda tutilmagan metodlar yordamida yondashmasligi uchun aniq ko'rsatmalar yoki cheklovlar kiritilishi lozim.

**Psixometrik tahlil** — topshiriqlarning murakkablik darajasi, ajratish (differenziatsiya) qobiliyati va ishonchligiga ko'ra tahlil etiladi. Buning uchun statistik tahlil usullari (Kronbax alfasi, test topshiriqlarining qiyinlik darajasi va ajratish darajasi) qo'llaniladi.

Aprobatsiya (sinovdan o'tkazish) — tayyorlangan vosita tanlangan guruhlarda sinovdan o'tkaziladi va natijalar tahlil qilinadi. Aprobatsiya jarayoni respublikaning barcha hududlarida bir paytda o'tkaziladi.

Ayni bir fan bo'yicha test topshiriqlarini aprobatsiyadan o'tkazish uchun obyekt sifatida - umumiy o'rta ta'lim muassasalari, ayrim fanlarga ixtisoslashtirilgan umumiy o'rta ta'lim maktab-internatlari, akademik litseylar va o'quv markazlari (avvalgi yillarda ta'lim muassasalarini tamonlaganlar uchun) tanlanadi. Aprobatsiya jarayonidagi me'yorlar (test topshiriqlarining soni, vaqt me'yori va h.k.) o'tkazilishi rejalashtirilayotgan test sinovi tartibini belgilovchi huquqiy-me'yoriy hujjatlardan kelib chiqib belgilanadi. Aprobatsiya natijalarining ilmiy tahliliga ko'ra test topshiriqlariga qo'yiladigan talablarga mos kelmagan yoki og'ish kuzatilgan test topshiriqlari

mualliflar tomonidan qayta ishlanadi hamda aprobatsiya jarayonining keyingi bosqichida takroran sinovdan o'tkaziladi [7].

Test topshirig'ining qiyinlik darajasi aprobatsiya natijasining statistik tahlil nazariyasi asosida hisoblab chiqiladi. Unga qadar fan ekspertlari Blum taksonomiyasidagi kognitiv darajalarni inobatga olgan holda shartli ravishda test topshirig'ining xomaki qiyinlik darajasini quyidagi tartibda belgilaydilar:

- ishlab chiqilgan pedagogik o'lchov vositasining javobini  $0 \div 25$  foiz oralig'ida sinaluvchining to'g'ri topishi taxmin qilinganda "qiyin" daraja;

- ishlab chiqilgan pedagogik o'lchov vositasining javobini  $25 \div 75$  foiz oralig'ida sinaluvchining to'g'ri topishi taxmin qilinganda "o'rta" daraja;

- ishlab chiqilgan pedagogik o'lchov vositasining javobini  $75 \div 100$  foiz oralig'ida sinaluvchining to'g'ri topishi taxmin qilinganda "oson" daraja.

Pedagogik o'lchov vositasini yaratishda bir nechta talablar bajarilishi lozim:

**Mazmuniy talablar** — topshiriq matnida keltirilgan ma'lumotlar ilmiy asoslangan bo'lishi, rasman qabul qilingan o'quv dasturi va o'quv adabiyotlarida qo'llangan atamalar keltirilishi lozim. Har bir savol taxmin qilishga emas, real bilim va tushunishga asoslanishi, aniq bir bilim,

ko'nikma yoki kompetensiyani o'lchashi lozim. Topshiriqning matni o'quv adabiyotlaridan aynan ko'chirib yozilishi mumkin emas. Ijtimoiy gumanitar fanlar bo'yicha sinaluvchi bilimni tekshirish maqsadida o'quv adabiyotlarida keltirilmagan badiiy asar parchalaridan foydalanish mumkin, bunda badiiy asar parchasi test topshirig'i matnida aks ettirilishi yoki qo'shimcha adabiyotlar ro'yxati avvaldan keng jamoatchilik e'tiboriga havola qilinishi shart. O'quv dasturidagi bilimni tekshirish uchun test topshirig'idagi ma'lumotlar keys ko'rinishida berilishi mumkin. Misol tariqasida keltirilayotgan, sinaluvchi boshidan o'tkazgan bo'lishi mumkin bo'lgan avtohalokat yoki biror tabiat hodisasi sinaluvchining ruhiy holatiga ta'sir etmasligi kerak.

***Til va metodik talablar*** — matn aniq, lo'nda, maqsadni anglash darajasida qisqa ifodalanishi, adabiy til qoidalari asosida yozilishi, unda kam ishlatiladigan, eskirgan va shevada qo'llaniladigan so'zlar, iboralar, belgilar bo'lmasligi shart. Matnda keltirilayotgan ma'lumotlar mantiqan izchil bo'lishi, sinaluvchini chalg'itishga xizmat qiluvchi ortiqcha (keraksiz) ma'lumotlarning ishlatilmasligi, mavzu jihatidan sinaluvchilarning ijtimoiy kelib chiqishiga, faqat qizlarga yoki o'g'il bolalargagina ma'lum o'yin qoidalari yoki biror millatga tegishli urf-odatlar, milliy qadriyatlar kabi jinsiga, madaniyatiga nisbatan noqulay bo'lmasligi, shuningdek, savol ikki xil ma'noni anglatmasligi kerak.

“Ko'pincha”, “ehtimol”, “ba'zida” kabi noaniq iboralardan foydalanish mumkin emas.

***Texnik va vizual talablar*** — format va dizayn jihatidan har bir savol tartib raqami bilan berilishi, javob variantlari aniq ajratilishi, qisqa javobni talab etuvchi ochiq topshiriqlarda javob yozish uchun yetarli joy ajratilishi, rasmlar, jadvallar, diagrammalar qo'llanilganda ular aniq va sifatli bo'lishi, savol mazmuniga mos kelishi, matn oson o'qiladigan shrift va o'lchamda bo'lishi kerak. Topshiriqlar oddiydan murakkabgacha tartibda joylashtirilishi maqsadga muvofiq. Matnda sinaluvchi topshiriqda bajarishi lozim bo'lgan *hisoblang, aniqlang, saralang, moslashtiring, toping, ko'rsating ...* kabi vazifani aniq ko'rsatuvchi buyruq so'zlar bo'lishi shart.

***Psixometrik talablar*** — savol, haqiqatan, o'lchamoqchi bo'lgan bilim yoki ko'nikmaga mos kelishi, bir xil bilim darajadagi o'quvchilar bir xil javob beradigan darajada aniqlikda bo'lishi, bilim darajasi kuchli va kuchsiz o'quvchilarni ajratib bera olishi kerak.

***Test turlari uchun qo'shimcha dizayn talablar*** — topshiriqni yechish uchun kerak bo'luvchi kattaliklar va o'lchov birliklari jadval, diagramma, grafik, sxema, xarita, rasm ko'rinishida berilishi mumkin. Quyidagi jadvalda ko'p qo'llaniladigan topshiriq turlari va ularga qo'yiladigan qo'shimcha dizayn talablari ifodalangan:

Topshiriq turi	Dizayn talablari
Tanlovli yopiq test	Javob variantlari bir xil formatda, mazmunan bir-biriga yaqin, bitta to'g'ri javobli (kalit), muqobil javob variantlari (distraktorlar) aniq noto'g'ri bo'lishi kerak. Kalit distraktorlardan ajralib turmasligi kerak. Javob variantlari orasida "javoblarning barchasi to'g'ri", "javoblarning barchasi noto'g'ri", "to'g'ri javob yo'q", "to'g'ri javob A", "to'g'ri javob A va B" kabi va shunga o'xshah iboralar ishlatilmasligi lozim.
Moslashtirish testlari	Ikkita ustunga ajratilgan, javoblar chalkashmaydigan tarzda joylashtirilishi lozim.
Tartiblash yoki guruhlash	Elementlar oson ajratiladigan tarzda berilishi, belgilar yoki raqamlar bilan ko'rsatilishi lozim.
To'ldirish testlari	So'z yoki ibora uchun yetarli bo'sh joy ajratilishi kerak. Yozuv uchun joy aniq belgilangan, savolning aniq javob qamrovi bo'lishi kerak.
Ochiq turdagi testlar	Matn bir necha qismga ajratilishi mumkin, bunda har bir qismda sinaluvchi bajarishi lozim bo'lgan vazifa aniq belgilanishi shart.

### 3. Natijalar va muhokamalar

**Ekspertizadan o'tkazish jarayoni va mezonlari** — test topshiriqlarining ekspertizasi bu o'lchov vositalarining sifatini mustaqil baholash jarayoni bo'lib, maxfiylikni ta'minlash maqsadida maxsus xonalarda, videokuzatuv nazoratida tegishli oliy ma'lumotga ega, amaldagi davlat ta'lim standartlari, o'quv dasturlari hamda ta'lim muassasalarida qo'llanilayotgan darsliklar bilan mukammal tanish bo'lgan malakali ekspertlar tomonidan amalga oshiriladi.

Ekspertiza turlari quyidagilardan iborat:

**Mazmuniy ekspertiza** — fanning ta'lim standarti va o'quv dasturlariga mosligi, topshiriqning mazmuniy to'g'riligi.

**Metodik ekspertiza** — savol ifodasining aniqligi, ta'lim psixologiyasiga muvofiqligi.

**Lug'aviy ekspertiza** — til normalariga rioya etilganligi, til qiyinchiligi darajasi.

**Psixometrik ekspertiza** — topshiriqlarni yechish orqali to'planadigan natijaning ishonchiligi, validligi, ajrajish qobiliyati.

**Texnik ekspertiza** — test formati, rasmlar, jadvallar, formulalar belgilarning to'g'ri joylashishi.

Ekspertiza mezonlari

- Har bir topshiriqning baholash mezoni aniq belgilab qo'yilgan bo'lishi (savolga to'liq, qisman yoki noto'g'ri javob berilgan holatlarda qancha ball qo'yilishi aniq ko'rsatilgan bo'lishi, mezonlar baholovchi va sinaluvchilar uchun tushunarli bo'lishi lozim. Ayniqsa, subyektivlik xavfi ortmasligi uchun kengaytirilgan javobni talab etuvchi topshiriqlarda baholash mezoni aniq bo'lishi lozim.);

- Test variantida fanning asosiy mavzulari qamrab olingan bo'lishi (test varianti fan dasturidagi asosiy va muhim mavzularni to'liq yoki yetarli darajada o'z ichiga olishi kerak. Test varianti faqat oson yoki biror bir mavzuga urg'u bergan holda tuzilmasligi, test varianti sifatini pasaytirmaslik uchun mavzular tarqoq yoki ortiqcha takrorlanmasligi lozim. Asosiy mavzular to'liq baholanishi test sinovi yakuniy natijalarining ishonchligini oshiradi.);

- Savollar turli kognitiv bosqichlarni qamrab olgan bo'lishi (test savollari faqat eslab qolishga emas, balki tushunish, qo'llash, tahlil qilish, baholash va yangi yechim yaratish bosqichlarini ham o'lchashi kerak. Test variantida har xil bosqichdagi savollar bo'lishi kerak, ayniqsa Blum taksonomiyasi asosida tuzilmani ajratish, bog'liqlikni aniqlash, fikr bildirish, qaror qabul qilish bosqichlari yuqori darajadagi fikrlash ko'nikmalarini baholaydi.);

- Bir xil mazmundagi savollar takrorlanmasligi (test variantida bir-biriga mazmun jihatidan juda yaqin yoki ayni takrorlanuvchi savollar bo'lmasligi kerak. Sinaluvchining xotirasiga tayanib to'g'ri topgan javobi, uning asl bilimini aks ettirmasligi mumkin. Natijaning ishonchli bo'lishi uchun har bir savol sinaluvchining yangi bilimini baholashi kerak.);

- Natijalarning obyektivligiga kafolat beruvchi struktura mavjudligi (topshiriqning tuzilishi shunday bo'lishi kerakki, natijalar sina-

luvchining fikriga, holatiga yoki taxminiga emas, balki real bilimga asoslangan holda hisoblanishi kerak. Test natijasi baholovchining shaxsiy fikriga bog'liq bo'lmasligi kerak, ayniqsa avtomatlashtirilgan testlar uchun muhim).

#### **Metodik tavsiyalar:**

Pedagogik o'lchov vositalarini ishlab chiqish va ekspertizadan o'tkazishda quyidagi metodik tavsiyalarga amal qilish zarur:

**Ta'lim maqsadlariga moslik** — vositalar o'quv natijalari bilan uyg'un bo'lishi lozim.

**Kognitiv muvozanat** — testlar turli qobiliyat darajalarini qamrab olishi zarur (tushunish, qo'llash, tahlil, sintez).

**Inklyuzivlik** — sinaluvchilarning imkoniyatlarini hisobga olgan holda ishlab chiqilishi kerak (vizual, eshitish yoki aqliy nogironligi bo'lgan sinaluvchilar uchun savollarni moslashtirish, matn hajmi, shrift o'lchami, tildagi soddalik, grafik yoki audio vositalar — barchasini hisobga olish talab qilinadi, audio savol, brayl format, kengaytirilgan vaqt (muqobil shakllar) taklif qilinishi mumkin).

**Ishonchli va valid** — vosita har doim bir xil natija berishi va aynan o'lchanmoqchi bo'lgan kompetensiyani (bilim, ko'nikma, malaka) o'lchashi shart. Bunday vositalar orqali: sinaluvchining haqiqiy bilim va ko'nikmalari aniqlanadi, baholash natijalari adolatli va ishonchli bo'ladi, ta'lim jarayoni ishtirokchilari va ota-onalar uchun aniq fikr shakllanadi,

ta'lim jarayonini takomillashtirish uchun foydali ma'lumotlar olinadi.

**Yangilanuvchanlik** — fan bo'yicha o'quv dasturlari yangilanganda, test topshiriqlari ham o'zgartirilishi lozim. O'quv dasturining yangilanishi — bu faqatgina yangi mavzular qo'shilishi emas, balki butun ta'lim jarayonining, shu jumladan baholash tizimining ham zamon talablariga mos ravishda o'zgartirilishini taqozo etadi. Shunday ekan, test topshiriqlarining muntazam ravishda takomillashtirib borilishi — sifatli ta'limni ta'minlashning muhim sharti hisoblanadi.

**Ochiqlik va tushunarliklik** — vosita sinaluvchi anglashi uchun aniq, oddiy tilda bo'lishi shart. Pedagogik o'lchov vositalari (testlar, yozma ishlar, baholash mezonlari, savollar, topshiriqlar va h.k.) nafaqat ilmiy jihatdan asoslangan, balki sinaluvchilar tomonidan to'g'ri tushunilishi uchun ochiq va ravshan bo'lishi zarur. Agar baholash topshirig'i murakkab, noaniq yoki ikki ma'noli tilda tuzilgan bo'lsa, hatto bilim darajasi yuqori bo'lsa ham bu holatda sinaluvchilar o'z bilim va ko'nikmalarini to'liq namoyon eta olmasligi mumkin. Bu esa baholashning adolatliligiga va ishonchliligiga putur yetkazadi.

### Xulosa

Tadqiqotlar natijasida shakllantirilgan metodik tavsiyalar va nazorat varaqasi pedagogik o'lchov vositalarini yangi sifat bosqichiga olib chiqish imkonini beradi. Xulosa o'rnida quyidagi muhim jihatlarni ta'kidlash lozim:

**Tizimli yondashuv:** Har bir test topshirig'i mazmuniy (stimul), me'yoriy (mezon) va texnologik (validlik) xususiyatga ega o'lchov vositasidir. Spetsifikatsiya talablariga qat'iy rioya qilish natijalarning obyektivligini ta'minlaydi.

**Ekspert malakasiga doir:** Ekspertiza jarayoni faqat fan bilimni emas, balki psixometrik va metodik ko'nikmalarni ham talab qiladi. Shu bois ekspertlar uchun maxsus nazorat varaqasini (Checklist) qo'llash inson

omili (subyektivlik)ni kamaytirishning eng samarali yo'lidir.

**Aprobatsiyaning ahamiyati:** Har qanday test topshirig'i amaliyotga joriy etilishidan oldin statistik sinovdan o'tishi shart. Aprobatsiya natijalari asosida qayta ishlangan savollargina haqiqiy bilim darajasini ko'rsata oladi.

**Kompetensiyaviy burilish:** Ta'lim islohotlari doirasida test topshiriqlarini oddiy nazariyadan — mantiqiy fikrlash, tahlil qilish va hayotiy vaziyatlarga tatbiq etish (keysar) darajasiga o'tkazish strategik vazifadir.

Taqdim etilgan "Nazorat varaqasi" fan ekspertlari ishini standartlash-tirishga va o'tkazilayotgan test sinovlarining xalqaro (PISA, TIMSS kabi) talablarga yaqinlashishiga xizmat

qiladi. Bu esa o'z navbatida, ta'lim tashkilotlariga qabul jarayonida adolat va shaffoflikni kafolatlaydi.

**Test topshirig'ini ekspertizadan o'tkazish bo'yicha nazorat varaqasi  
(nazorat varaqasida barcha savollarga "HA" deb javob berish maqsad qilingan)**

Savol ID _____	Sana _____		Ekspert ID _____ Imzo _____
Nazorat savolari	HA	YO'Q	Izoh: ("YO'Q" deb javob berilgan bandlar uchun)
<b>Test topshirig'ining matni bo'yicha</b>			
Topshiriq amaldagi davlat ta'lim standartiga va o'quv dasturiga mos			
Topshiriq davlat ta'lim standarti bo'yicha bitta bilimni aniqlayapti			
Topshiriq belgilangan bilimni baholash uchun (maqsad sari) aniq yo'naltirilgan			
Topshiriq mavzu jihatidan sinaluvchining ijtimoiy kelib chiqishiga, jinsiga, madaniyatiga nisbatan noqulay emas			
Topshiriqda uslubiy va imloviy xatolar mavjud emas			
Topshiriqda kam ishlatiladigan va shevada qo'llaniladigan so'zlar, iboralar, belgilar, atamalar mavjud emas			
Topshiriq matni qisqa va maqsadni tushunish darjasida aniq bayon qilingan			
Topshiriqda chalg'ituvchi va ortiqcha ma'lumotlar keltirilmagan			
Topshiriqda sinaluvchi bajarishi lozim bo'lgan vazifani aniq ko'rsatuvchi buyruq so'zlar mavjud			
Topshiriqda to'g'ri javobni topishga yordam beruvchi so'z va iboralar ishlatilmagan			
<b>Test topshirig'ining javoblari bo'yicha</b>			
Topshiriqda faqat bitta to'g'ri javob (kalit) mavjud			
Javoblar bir mavzu doirasida, shakliy jihatdan ham bir-biriga yaqin, kalit distraktorlardan ajralib turmaydi			
Distraktorlar asosli ravishda tanlangan, sinaluvchi yo'l qo'yishi mumkin bo'lgan xatoliklar ehtimoli inobatga olingan			
Kalit maqbul (echim uchun to'g'ri tanlangan) yo'l bilan topiladi			
<b>Test topshirig'ining ko'rinishi (dizayni) bo'yicha</b>			
Topshiriqda o'zak, kerakli ma'lumotlar, bajarilishi lozim bo'lgan vazifa bir-biridan bo'sh satrlar bilan ajratilgan			
Bajarilishi lozim bo'lgan vazifa, shuningdek, vazifada qo'llanilgan inkor			

so'zlar qoraytirilgan yoki kursiv harflar bilan yozilgan			
Topshiriq matnida jadval, diagramma, grafik, sxema, xarita, rasmlar bajarilishi lozim bo'lgan vazifadan oldin qo'yilgan			

## ADABIYOTLAR

1. "Ta'lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo'shimcha choratadbirlar to'g'risida"gi PQ-4884-son qarori, (06.11.2020-yil)
2. "Reliability and validity of international large-scale assessment: understanding IEA's comparative studies of student achievement" (Wagemaker, Hans; International Association for the Evaluation of Educational Achievement)
3. В.С.Аванесов Основы научной организации педагогического контроля. – Москва: Центр тестирования, 2002.
4. S.Messick, Validity of Psychological Assessment: Validation of Inferences from Persons' Responses and Performances as Scientific Inquiry into Score Meaning. – American Psychologist, 1995. – Vol. 50(9). – P. 741–749.
5. A.J.Nitko Educational Assessment of Students. – Merrill Prentice Hall, 2001.
6. "Pedagogik o'lchov vositalarini ishlab chiquvchi fan ekspertlariga, o'lchov vositalarini ishlab chiqishga va ekspertizadan o'tkazishga qo'yilgan talablar". Bilim va malakalarni baholash agentligi Ilmiy-metodik kengashining 2024-yil 29-fevraldagi 3-son yig'ilishi bayoni bilan ma'qullangan me'yoriy hujjat.
7. "Test topshiriqlari aprotatsiyasini o'tkazish bo'yicha YO'RIQNOMA". Davlat test markazi Ilmiy-metodik kengashining 2021-yil 30-dekabrdagi 10-son yig'ilishi bayoni bilan ma'qullangan me'yoriy hujjat.

## REQUIREMENTS FOR THE DEVELOPMENT AND EXPERT REVIEW OF PEDAGOGICAL MEASUREMENT TOOLS: METHODOLOGICAL RECOMMENDATIONS

Z. Olimbekov<sup>1</sup>, A. Sulaymonov<sup>2</sup>

<sup>1</sup>*Scientific and Educational Practice Center under the Agency for the Assessment of Knowledge and Skills, 12 Bog'ishamol Street, Tashkent 100084*

<sup>2</sup>*Agency for the Assessment of Knowledge and Skills, 12 Bog'ishamol Street, Tashkent 100084*  
[zolimbekov@mail.ru](mailto:zolimbekov@mail.ru)

**Abstract.** This article presents methodological recommendations for improving the development and expert review of pedagogical measurement tools, particularly test items used during the admission process in educational institutions. It outlines the requirements for designing and evaluating test items and offers practical guidance for enhancing the overall quality of these tools. In addition, the article focuses on key issues such as aligning with educational curricula, determining cognitive levels, constructing item content and answer options, managing the expert review process, and ensuring personal competence and objectivity—all aimed at improving the quality of test items and organizing the work of subject experts more effectively.

**Keywords:** pedagogical measurement, test items, test specification, expert review, Bloom's taxonomy, validity, reliability.